

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
oktyabr



**TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN
POLITEXNIKA UNIVERSITETI**

*Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya
materiallari to'plami*

**“GLOBAL RAQAMLI INTEGRATSIYALASHUV:
2030-YILGACHA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA
TEXNOLOGIK VA INDUSTRIAL SANOATNI RIVOJLANTIRISH
ORQALI MIKRO VA MAKROIQTISODIY BARQAROR
O'SISHNI TA'MINLASH DOLZARBLIGI”**

**“GLOBAL DIGITAL INTEGRATION: THE RELEVANCE OF
ENSURING MICRO AND MACROECONOMIC SUSTAINABLE
GROWTH THROUGH TECHNOLOGICAL AND INDUSTRIAL
DEVELOPMENT IN THE TRANSITION TO A GREEN
ECONOMY BY 2030”**

**«ГЛОБАЛЬНАЯ ЦИФРОВАЯ ИНТЕГРАЦИЯ:
АКТУАЛЬНОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО
МИКРО- И МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ЧЕРЕЗ
РАЗВИТИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ И ИНДУСТРИАЛЬНОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛЁНОЙ
ЭКОНОМИКЕ К 2030 ГОДУ»**

7-MAXSUS SON



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr.
2025-yil, 15-oktyabr.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ixamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ASSESSING RISKS IN BANKING ACTIVITIES TO ENHANCE THE EFFICIENCY OF FINANCIAL SERVICES	21
Saidov Jasurbek Latipbayevich	
MECHANISMS OF THE IMPACT OF STATE BUDGET REVENUES AND EXPENDITURES ON ECONOMIC GROWTH.....	24
Sheraliyev Nurbek Jumanazarovich	
O'QUVCHI VA TALABALARDA HUQUQIY MADANIYATINI TA'LIM JARAYONIDA YUKSALTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA TAMOIYILLARI	27
Mansurova Zilola Akromxonovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA FINTECH INNOVATSIYALARINING RIVOJI VA ULARNING SANOAT-QURILISH SEKTORIDAGI TRANSFORMATSION TA'SIRI	30
Muzayyana Beknazarova	
TURIZM SOHASIDA RAQOBAT AFZALLIKLARINI YARATISHDA MARKETINGNING ROLI	33
Shaymanov To'liqin Mahmayusupovich	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT BUDJETI IJROSINI RAQAMLASHTIRISHNING FISKAL INTIZOM VA SHAFFOFLIKKA TA'SIRI	37
Tangrieva Farida Abdulkarimovna	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA SUN'IY INTELLEKTNI TATBIQ ETISH ORQALI BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH	41
Radjabov Bunyod Abdullilovich	
XXI-ASRDA JAHON IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA ASOSIY DRAYVERLARI	45
Jalolov Umidjon Xudoyberdi o'g'li, Yegamberdiyev Shuxrat Satimbayevich	
XALQARO RAQAMLI INTEGRATSIYA JARAYONIDA O'ZBEKISTON ISHTIROKI	48
Muyassarzoda Fayziyeva	
ФИНАНСОВЫЙ КОНТРОЛЬ КАК КЛЮЧЕВОЙ ИНСТРУМЕНТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ИНТЕРЕСОВ И ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ УЗБЕКИСТАНА	52
Турсунбоева Нилуфар Отабековна	
ФИНАНСОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ И ИНВЕСТИЦИИ	55
Ягудин Дмитрий Рустамович	
YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA BARQAROR TURIZM RIVOJI: GLOBAL TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUVLAR.....	57
Xamdullayeva Gulhayo Ergash qizi	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA INVESTITSION QARORLARNI OPTIMALLASHTIRISH	59
Rustambekov Djasur Askarovich	
KORXONA POTENSIALINING MOHIYATI VA TUZILMASIGA OID NAZARIY HAMDA ILMIY YONDASHUVLAR TAHLILI.....	61
Djalilov Sardor Sadillovovich	
XALQARO IQTISODIYOTNING GLOBAL DAROMAD TENGSIZLIKLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI: SAVDO SIYOSATLARI VA REDISTRIBYUTSIYA MEKANIZMLARINING TAQQOSLAYDIGAN TAHLILI	64
Kurolov Maksud Obidovich	
SURXONDARYO VILOYATIDA INVESTITSIYA VA YHM O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	73
Zaripova Muqaddas Jumaniyozovna, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li	



SURXONDARYO VILOYATIDA INVESTITSIYA VA YHM O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK

Zaripova Muqaddas Jumaniyozovna

Termiz Davlat Univeristeti I.f.f.d (PhD)

Normurodov Asliddin Alijon o'g'li

Termiz shahridagi Prezident maktabi o'qituvchisi

E-mail: normurodovasliddin7@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada 2010–2024-yillar oralig'ida Surxondaryo viloyatida investitsiyalar hajmi va yalpi hududiy mahsulot (YHM) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilingan. Tahlil natijalari investitsiyalar hajmining ortishi mintaqadagi iqtisodiy faollik va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishda muhim rol o'ynaganini ko'rsatadi. Shuningdek, YHM va bandlik darajasi o'rtasidagi bog'liqlik ijobiy, ammo zaif ekanligi aniqlangan. Tadqiqot natijalari investitsiyalarning barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: investitsiya, yalpi hududiy mahsulot (YHM), iqtisodiy o'sish, bandlik, Surxondaryo viloyati, mintaqaviy rivojlanish.

Abstract. This article analyzes the relationship between investment volumes and the gross regional product (GRP) in the Surkhondarya region during the period 2010–2024. The results show that the increase in investment volumes has played a significant role in expanding production capacity and enhancing the region's economic activity. Moreover, a positive but weak correlation between GRP and employment levels has been identified. The findings confirm the importance of investments in ensuring sustainable economic growth.

Keywords: investment, gross regional product (GRP), economic growth, employment, Surkhondarya region, regional development.

Аннотация. В данной статье анализируется взаимосвязь между объемами инвестиций и валовым региональным продуктом (ВРП) в Сурхандарьинской области за период 2010–2024 годов. Результаты анализа показывают, что увеличение объема инвестиций сыграло важную роль в расширении производственных мощностей и повышении экономической активности региона. Кроме того, выявлена положительная, но слабая взаимосвязь между уровнем ВРП и занятостью. Полученные результаты подтверждают значимость инвестиций в обеспечении устойчивого экономического роста.

Ключевые слова: инвестиции, валовый региональный продукт (ВРП), экономический рост, занятость, Сурхандарьинская область, региональное развитие.

KIRISH

Surxondaryo viloyatida so'nggi yillarda iqtisodiy faollik sezilarli darajada oshib, investitsiyalar hajmi va yalpi hududiy mahsulot (YHM) ko'rsatkichlari o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. 2010–2024-yillar oralig'ida viloyatga kiritilgan investitsiyalar hajmi 655,3 mlrd so'mdan 15 277,5 mlrd so'mgacha o'sgan. Shu bilan birga, YHM 3 394,7 mlrd so'mdan 16 354,4 mlrd so'mgacha ortgan.

Bu holat mintaqada ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi va iqtisodiy faoliyatning izchil rivojlanayotganidan dalolat beradi. Investitsiyalar hajmi va YHM o'rtasida ijobiy bog'liqlik kuzatilgan bo'lsa-da, bandlik darajasiga ta'sir nisbatan zaif bo'lgan. Tadqiqot natijalari investitsiyalar iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi asosiy omil ekanini ko'rsatadi. Shu sababli, mintaqaviy investitsiya siyosatini takomillashtirish Surxondaryo viloyati iqtisodiy salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi [1].

Tadqiqot natijalari Surxondaryo viloyati misolida investitsiya hajmi, yalpi hududiy mahsulot (YHM) va bandlik darajasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni empirik asosda birinchi marta tizimli ravishda tahlil qilganligi bilan ilmiy yangilikka ega. Tahlillar natijasida:

- investitsiyalar hajmining ortishi YHM o'sishiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan;
- YHM va bandlik darajasi o'rtasidagi bog'liqlik zaif, ammo ijobiy xarakterga ega ekani statistik jihatdan asoslab berilgan;


– mintaqaviy iqtisodiy o'sishga investitsiyalardan tashqari migratsiya, mehnat unumdorligi va aholi sonining o'sishi kabi omillar ham ta'sir etishi isbotlangan;

– Surxondaryo viloyatining iqtisodiy salohiyatini oshirishda investitsiya siyosatini diversifikatsiya qilish zarurligi bo'yicha ilmiy xulosa ishlab chiqilgan.

Mazkur natijalar mintaqaviy iqtisodiyotda investitsiyalarning samaradorligini baholashda va iqtisodiy o'sishni rejalashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

2010–2024-yillar oralig'ida Surxondaryo viloyatiga kiritilgan investitsiyalar hajmi hamda yalpi hududiy mahsulot (YHM) dinamikasi tahlili shuni ko'rsatadiki, bu davrda mintaqada iqtisodiy faollik ko'zga ko'rinarli darajada oshgan. Viloyatda dastlabki yillarda investitsiyalar hajmi 655,3 mlrd so'mdan (2010-yil) 2 142,4 mlrd so'mgacha (2016-yil) o'sdi. Bu davrda o'sish biroz sekin kechgan. Yalpi hududiy mahsulot ham shunga mos ravishda 3 394,7 mlrd so'mdan 16 354,4 mlrd so'mgacha o'sib, mintaqaning real sektorida ishlab chiqarish hajmining izchil kengayib borayotganini ifodalaydi.

Ushbu davrda Surxondaryoda asosan qishloq xo'jaligi va sanoatga yo'naltirilgan investitsiyalar ustun bo'lgan. Ammo 2016-yilda jami kiritilgan investitsiyalar miqdori 2 142,4 mlrd so'mdan qariyb uch barobarga oshib, 2018-yilda ushbu ko'rsatkich 7 240,6 mlrd so'mni tashkil etdi. 2020-yilda 10 068,2 mlrd so'm, 2022-yilda 11 569,4 mlrd so'm hamda 2024-yilda 15 277,5 mlrd so'm mablag' ajratilgan bo'lsa-da, bu ko'rsatkichlar o'tgan yilga nisbatan mos ravishda 1 766,9 mlrd so'm, 486,4 mlrd so'm va 3 030,2 mlrd so'mga kam degani, biroq bu kamayish YHM o'sishiga ta'sir qilmagan. Eng ko'p investitsiya 2018-yilda kiritilgan bo'lib, 18 307,7 mlrd so'mni tashkil etgan [2].



1-rasm. Yalpi hududiy mahsulot va bandlik o'rtasidagi bog'liqlik (2010–2024)

Yuqoridagi 1-rasmda (YHM va aholi bandligi orasidagi bog'liqlik, 2010–2024-yillar) hududdagi YHM (iqtisodiy o'sish) bilan bandlik darajasi o'rtasidagi ijobiy, ammo zaif bog'liqlik tasvirlangan. Ushbu model asosida baholangan regressiya tenglamasi quyidagicha:

$$y = 2.8116x - 158.94 \quad (R^2 = 0.0651)$$

Ushbu tenglamaga ko'ra, iqtisodiy o'sish 1 trillion so'mga oshganda, aholining bandlik darajasi o'rtacha 2,81 punktga oshishi kuzatilmoqda, ya'ni bandlik darajasining atigi 6,5 foiz qismi YHM o'zgarishlari bilan izohlanadi.

Bu shuni bildiradiki, aholi bandlik darajasiga ta'sir qiluvchi omillar yalpi hududiy mahsulot yoki investitsiya bilan cheklanibgina qolmay, ushbu jarayonda migratsiya, aholi sonining o'sishi, qishloq xo'jaligidagi mehnat unumdorligi singari boshqa omillar ham muhim rol o'ynaydi [3].

1-jadval. Differensial tahlil


Davr	O'rtacha investitsiya (mlrd so'm)	O'rtacha YAHM (mlrd so'm)	O'rtacha bandlik (%)
2010–2017	1606,95	8918,28	63,675
2018–2024	12333,8	35488,6	64,61
Tafovut	10 726,85	26 570,32	0,94



Ushbu jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2018–2024-yillarda viloyatga kiritilgan investitsiya hajmi 2010–2017-yillarga nisbatan 7,7 barobarga oshgan. Shuningdek, yalpi hududiy mahsulot (YHM) ham taxminan 4 barobar o'sgan. Bandlik darajasi esa nisbatan sekinroq, lekin barqaror ijobiy o'sish tendensiyasini ko'rsatgan — 63,7 foizdan 64,6 foizgacha (+0,9 punkt) o'sgan.

Ushbu ma'lumotlar shuni anglatadiki, iqtisodiyotda real sektor faolligi ortgani sari ish o'rinlari soni ham asta-sekin o'sib borgan. Ayniqsa, 2019-yilda ushbu ko'rsatkich 67 foizni tashkil etgan. 2020-yildagi pandemiya davrida esa investitsiyalar qisqargan bo'lsa-da, bandlikda vaqtinchalik pasayish kuzatilgan. Bu esa investitsiyalar va bandlik o'rtasidagi bog'lanishning bevosita sababli xarakterga ega ekanini tasdiqlaydi [4].

Empirik tahlillar shuni ko'rsatadiki, Surxondaryo viloyatida yalpi hududiy mahsulot (YHM) hajmi investitsiya faolligi bilan uzviy bog'liq. Investitsiyalar hajmi ortgan davrlarda ishlab chiqarish quvvatlari kengayib, YHM hajmi ham sezilarli darajada oshgan. Bunday holat investitsiyalarning iqtisodiy o'sishdagi rag'batlantiruvchi rolini ifodalaydi. Sarmoya oqimlari kamaygan yillarda esa YHM o'sish sur'atlari pasaygan. Demak, investitsiyalar nafaqat ishlab chiqarish hajmiga, balki umumiy iqtisodiy salohiyat va mintaqaviy farovonlik darajasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda [5].



2-rasm. Surxondaryo viloyatiga kiritilgan investitsiyalar va yalpi hududiy mahsulot hajmining o'sishi (2010–2024)

Grafik ma'lumotlariga ko'ra, 2010–2024-yillar davomida Surxondaryo viloyatida investitsiyalar hajmi va yalpi hududiy mahsulot (YHM) o'rtasida aniq o'sish tendensiyasi kuzatiladi. 2010-yilda investitsiyalar hajmi atigi 655,3 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 15 277,5 mlrd so'mga yetgan. Shu bilan birga, YHM ham 3 394,7 mlrd so'mdan 54 354,1 mlrd so'mgacha ko'tarilgan.

2017-yildan boshlab investitsiyalar hajmining keskin o'sishi kuzatilib, bu davrda infratuzilma va ishlab chiqarish sohalariga yo'naltirilgan mablag'larning ko'paygani bilan izohlanadi. Natijada 2018–2024-yillarda YHM ham jadal o'sib borgan. Bu esa investitsiya faoliyatining iqtisodiy rivojlanishga kuchli ta'sir ko'rsatganini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, diagrammadagi ma'lumotlar Surxondaryo viloyatida investitsiyalar hajmining ortishi iqtisodiy o'sish, ishlab chiqarish hajmi va aholi farovonligining oshishiga bevosita hissa qo'shganini ko'rsatadi.

XULOSA

2010–2024-yillar oralig'idagi tahlillar Surxondaryo viloyatida investitsiya faolligining ortishi yalpi hududiy mahsulot (YHM) o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatganini ko'rsatadi. Investitsiyalar hajmining ko'payishi ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirgan, iqtisodiy faollikni hamda mintaqaviy farovonlikni oshirgan.

Shu bilan birga, YHM va bandlik darajasi o'rtasida ijobiy, ammo zaif bog'liqlik aniqlangan bo'lib, bu holat bandlikka boshqa omillar ham sezilarli ta'sir ko'rsatishini bildiradi. Umuman olganda, Surxondaryo viloyatida iqtisodiy o'sishni ta'minlashda investitsiyalar muhim rag'batlantiruvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Investitsiya siyosatini diversifikatsiya qilish va real sektorni yanada qo'llab-quvvatlash YHMning barqaror o'sishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2024). Surxondaryo viloyati ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari: 2010–2024-yillar tahlili. Toshkent: Statistika agentligi nashriyoti.
2. Surxondaryo viloyati hokimligi. (2024). Viloyat investitsiya dasturlari va Yalpi hududiy mahsulot dinamikasi bo'yicha hisobot. Termiz: Surxondaryo viloyati iqtisodiy taraqqiyot boshqarmasi.



3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2023). Hududlar kesimida investitsiya faolligi va YHM o'sish sur'atlari. Toshkent: Iqtisodiyot va moliya vazirligi axborot markazi.
4. Nishonov, A., & Qodirova, M. (2024). O'zbekiston mintaqalarida investitsiya faolligi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik. O'zbekiston iqtisodiy tadqiqotlari jurnali, 6(2), 45–58.
5. Xudoyberdiyev, R. (2023). Mintaqaviy investitsiya siyosatining samaradorligi va YHM o'sishiga ta'siri. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 4(1), 32–41.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100